



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)

Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.

Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.

Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)

Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari

Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.

Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukaramova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

XODIMLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI, KORPORATIV MADANIYAT VA MEHNAT UNUMDORLIGI O'RTASIDAGI UZVIY BOG'LIQLIKNI CHUQUR TAHLIL QILISH.....	8
Shoabdurashidova Mahina Jaxongir qizi, Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ESG TAMOYILLARI INTEGRATSIYASI ORQALI KORXONALAR BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH.....	15
Jolg'ashova Nozima Mansurovna, T.D. Mamatkulov	
АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	21
Давлетова Адилля Азатбаевна, Сапаев Дилшод Хушнудович	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHI IQTISODIY O'SISHNING OMILI.....	27
Jumaniyazov Rashid Azamatovich, Ismailov Baxit Abdireymovich	
“LOKOMOTIV” MEHMONXONASI ZAMONAVIY SHAROITLARDI XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Masharipov O'rolbek Ozod o'g'li, Khodjaeva Nodiraxon Abdurashidovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TIZIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	36
Boybosinova Shaxlo Meles qizi, Ostonov Muhridin Bahridin o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONIDA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH VA BAHOLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	44
Qodirjonov Dilshodjon Qosimjon o'g'li, Xolmirzayev Ulug'bek	
BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MOLIVAVIY NAZORAT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	49
Igamberdieva Kunduz Ergashevna, O'razova Marjona Valiboy qizi	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ.....	55
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Давронов Дониёрбек Заррухович	
ANALYSIS OF OUR COUNTRY'S POSSIBILITIES FOR ACCESS TO THE SEA THROUGH THE KABUL CORRIDOR.....	61
Khuzhamov Babur, Khudoyberdiev Diyorbek, Jumaboev Bekzod	
O'ZBEKISTONDA ESK.UZ TIZIMINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA ISTIQBOLLARI.....	69
M.J.Nurmetova, Baxtyorov Ahadbek Doniyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA KRIPTOVALYUTALARNING JORIY FOYDALANISHINI TAHLIL QILISH.....	77
Qobilova N. Q., Normurodov X. E.	
MOLIVAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI.....	83
Toirov Bobur G'ofir o'g'li, F.U.Umarov	



MOLIYAVIY RISKLAR VA ULARNI XALQARO MIQYOSDA BOSHQARISH USULLARI



Toirov Bobur G'ofir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Bank ishi" fakulteti, BIA-51 gurux talabasi

Ilmiy rahbar:

F.U.Umarov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Mintaqaviy iqtisodiyot" kafedrasida dosenti
i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy risklarni boshqarish va baholashning kompaniyalar istiqbolli prognozlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati yoritilgan. Xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan moliyaviy risklarni baholash standartlari hamda ularning iqtisodiy mazmuni tahlil qilingan. Shuningdek, moliyaviy risklarni boshqarishning muhim xususiyatlari asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida O'zbekiston iqtisodiyotida risk menejmentini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: risk menejmenti, investitsion faoliyat, moliyaviy barqarorlik, kapital, moliya, samaradorlik, moliyaviy instrumentlar, korporativ moliya, baholash.

Abstract: This article examines the importance of financial risk management and assessment in developing long-term forecasts for companies. It analyzes international standards of financial risk evaluation and their economic implications. The study highlights key characteristics of effective financial risk management. Based on the findings, research-based proposals and practical recommendations are developed to enhance risk management practices in the economy of Uzbekistan.

Key words: risk management, investment activity, financial stability, capital, finance, efficiency, financial instruments, corporate finance, valuation.

Аннотация: В данной статье раскрывается значение управления и оценки финансовых рисков при разработке долгосрочных прогнозов деятельности компаний. Проанализированы стандарты оценки финансовых рисков, применяемые в международной практике, а также их экономическое содержание. Освещены ключевые особенности эффективного управления финансовыми рисками. По результатам исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на совершенствование системы риск-менеджмента в экономике Узбекистана.

Ключевые слова: управление рисками, инвестиционная деятельность, финансовая устойчивость, капитал, финансы, эффективность, финансовые инструменты, корпоративные финансы, оценка.



KIRISH

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish va takomillashtirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ushbu subyektlar faoliyatini rivojlantirish, infratuzilmasini mustahkamlash hamda kapital bozoridagi ishtirokini kengaytirish uchun zarur huquqiy asoslar shakllantirildi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida mamlakatimizda kapital harakatini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, yirik korxonalarni va ulardagi ulushlarni (aksiyalarni), jumladan fond birjasi orqali xususiylashtirish, sanoatning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish hamda iqtisodiyotni liberallashtirish va transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1].

Mazkur yo'nalishlardan kelib chiqib, tashqi iqtisodiy muhitdagi o'zgarishlarga mos ravishda korporativ moliya siyosatini takomillashtirish, moliyaviy menejmentning zamonaviy xalqaro yondashuvlarini joriy etish, moliyaviy resurslarning qo'shimcha manbalarini shakllantirishda moliya bozori bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, moliyaviy risklarni boshqarishda ilg'or standartlarni qo'llash hamda kapital tuzilmasini optimallashtirishda zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmini samarali tashkil etishning muhim shartlaridan biri moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha asoslangan va oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish hisoblanadi. Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklarni miqdoriy baholash va boshqarish tizimini takomillashtirish, jumladan xalqaro standartlarni keng joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, moliya sektorida faoliyat yurituvchi aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni boshqarish tizimi nisbatan rivojlangan bo'lib, tijorat banklari va sug'urta kompaniyalarida bu yo'nalishda maxsus tuzilmalar shakllantirilgan. Tijorat banklarida asosan kredit risklarini tahlil qilish va boshqarish tizimi rivojlangan bo'lsa, sug'urta kompaniyalarida sug'urta hodisalari bilan bog'liq risklarni baholash amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Iqtisodiyotning real sektorida faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida esa moliyaviy risklarni boshqarish jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, ushbu yo'nalishda ilmiy-amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy risklarni boshqarish hamda kompaniyalarda risk-menejment tizimini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy jihatlariga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud. Ushbu ilmiy ishlarda moliyaviy risklarni miqdoriy baholash, ularni boshqarish mexanizmlari va risk menejmentini samarali tashkil etishga doir turli yondashuvlar va ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Risklarni boshqarish investitsiya qarorlaridagi noaniqliklarni aniqlash, tahlil qilish hamda ular asosida asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonini o'z ichiga oladi. Soddaroq qilib aytganda, bu investitsiya faoliyati bilan bog'liq moliyaviy risklarni monitoring qilish va ularni samarali boshqarishga qaratilgan tizimli jarayondir (Wang, Zhang va boshqalar, 2024) [2].

Moliyaviy risklarni boshqarish strategiyalari moliyaviy tavakkalchilikning turli shakllarini samarali boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini ifodalaydi. Bunday strategiyalar har qanday korxonalar yoki jismoniy shaxs uchun iqtisodiy va moliyaviy faoliyat jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Fan, Chen va boshqalar, 2023).

Moliyaviy risklarni boshqarish — bu risklarni aniqlash, baholash va ularning oldini olishga qaratilgan boshqaruv jarayonidir. Ushbu yo'nalish kompaniyalar faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki u moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ehtimoliy yo'qotishlarning oldini olish bilan bevosita bog'liqdir. Pul oqimlarini prognozlash, diversifikatsiya hamda samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish moliyaviy risklarni boshqarishning asosiy elementlari hisoblanadi. Samarali risk menejmenti xarajatlarni optimallashtirishga, boshqaruv qarorlarini yanada asosli qabul qilishga hamda daromadni oshirishga xizmat qiladi (Lancaster, Goff, 2023).

Professor A. Burxanov (2019) fikriga ko'ra, moliyaviy barqarorlik korxonaning foyda olish qobiliyati, majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi, faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlari hamda resurslar aylanishining barqarorligi bilan tavsiflanadigan kompleks ko'rsatkich hisoblanadi [3].

Professor O. Xamdorov (2021) ta'kidlashicha, moliyaviy barqarorlik monitoringi — bu korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni muntazam kuzatish, tahlil qilish va prognozlash, shuningdek, strategik va taktik qarorlar qabul qilish hamda ularning samaradorligini baholash jarayonidir [8].

A. Solodov (2017) tavakkalchilikni kompaniya faoliyatida yuzaga keladigan, natijasi to'liq aniqlanmagan, ammo uni boshqarish variantlarini ishlab chiqish mumkin bo'lgan holat sifatida izohlaydi. Moliyaviy risklar esa



korxonaning moliyaviy resurslari hajmi va tuzilmasiga, shuningdek, umumiy moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar majmuasini anglatadi [11].

Korxonaning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash tizimida moliyaviy risklar bozor kon'yunkturasi xususiyatlariga bog'liq bo'lgan turli tarkibiy elementlardan iborat bo'ladi. Barqaror raqobat ustunliklarini shakllantirish kompaniyaning bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi (Боровская, Шайхутдинова, 2019).

Shuningdek, Abdullayeva M.X. (2024) tadqiqotida moliyaviy risklarni boshqarish va baholashning kompaniyalar istiqbolli rivojlanishini prognozlashdagi ahamiyati asoslab berilgan. Unda xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan risklarni baholash standartlari, ularning iqtisodiy mazmuni hamda moliyaviy risklarni boshqarishning muhim xususiyatlari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy tadqiqotda mantiqiy va tarkibiy tahlil usullari, ma'lumotlarni guruhlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash metodlaridan samarali foydalanildi. Ushbu yondashuvlar tadqiqot mavzusini har tomonlama tahlil qilish, mavjud ilmiy qarashlarni tizimlashtirish hamda asoslangan xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Bugungi kunda "risk" tushunchasiga yagona va universal ta'rif mavjud emas. Umumiy talqinda risk ehtimoliy noaniqlik yoki kutilayotgan natijalarning turlicha bo'lishi bilan izohlanadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan qaralganda, risk prognoz qilingan variantlarga nisbatan kutilgan natijaga erishilmasligi yoki daromad darajasining pasayishi ehtimolini anglatadi.

Risk deganda iqtisodiy natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli omillar va sharoitlarning mavjudligi tushuniladi. Bunday holatlar resurslardan foydalanish samaradorligining o'zgarishi, daromadning kamayishi ehtimoli, qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi yoki investitsion loyihalarning qayta ko'rib chiqilishini talab etishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, risk tavakkalchilik sharoitida qaror qabul qilish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u maqsadga erishish bilan bir qatorda, natijalarga ta'sir qiluvchi noaniq omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Noaniqlik esa natijasi oldindan to'liq aniqlanmagan vaziyatlar bilan tavsiflanadi. Agar ma'lum bir vaziyatning yuzaga kelish ehtimolini miqdoriy yoki sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud bo'lsa, bu tavakkalchilik holatini ifodalaydi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy risklar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish maqsadida ularni aniq mezonlar asosida tasniflash muhim ahamiyat kasb etadi.

Fikrimizcha, moliyaviy risklarni asosiy belgilariga ko'ra turkumlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy risklarni asosiy belgilari bo'yicha turkumlanishi¹

1 Muallif ishlanmasi



Noaniqlik elementlarining mavjudligi qaror qabul qilish jarayonida turli natijalarga olib kelishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yuzaga keltiradi.

Agar muayyan variantlarni miqdoriy va sifat jihatdan baholash imkoniyati mavjud bo'lsa, bu statistik jarayonlarga asoslangan tavakkalchilik holati sifatida talqin etiladi. Bunday holatlar quyidagi shartlar bilan tavsiflanadi [4]:

- noaniqlikning mavjudligi, ya'ni kelajak natijalari bo'yicha to'liq va ishonchli ma'lumotning cheklanganligi;
- yakuniy natijaga olib keluvchi bir nechta muqobil rivojlanish variantlarining mavjudligi;
- muqobil variantlarni amalga oshirish ehtimolini baholash imkoniyati;
- muqobil variantlardan birini tanlash zaruratining mavjudligi (shu jumladan, tanlashdan voz kechish imkoniyati ham);
- tavakkalchilik vaziyatining yuzaga kelishi bilan bog'liq moddiy, ma'naviy va boshqa turdagi ehtimoliy yo'qotishlarning mavjudligi.

Shuningdek, moliyaviy menejmentda moliyaviy risklarni samarali boshqarish uchun ularni boshqarishning asosiy tamoyillarini aniq shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro amaliyotda moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha turli yondashuvlar hamda ularni baholashning keng qamrovli metodologiyalari ishlab chiqilgan.

Mazkur metod va uslublardan foydalanishda kompaniyalar moliyaviy va investitsion faoliyatni tashkil etishda zamonaviy moliyaviy menejment instrumentlaridan foydalanish darajasi, kapital bozorida ishtiroki, shuningdek qo'llanilayotgan modellar uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarning mavjudligi va mosligi kabi omillarni inobatga olishlari zarur.

Moliyaviy risklarni baholash yondashuvlarini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- risk ehtimolini baholashga asoslangan yondashuv;
- muayyan ssenariy asosida ehtimoliy yo'qotishlarni baholash;
- kombinatsiyalangan yondashuv, ya'ni riskning yuzaga kelish ehtimoli bilan bir qatorda ehtimoliy yo'qotishlar miqdorini ham baholash.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda aynan kombinatsiyalangan yondashuv keng qo'llaniladi. Chunki ushbu yondashuv risk ehtimolligini baholash bilan birga, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmini ham aniqlash imkonini beradi. Bu esa risklarni yanada kompleks va asoslangan tarzda boshqarishga xizmat qiladi.

Shuningdek, moliyaviy risklarni baholashda qo'llaniladigan usul va modellarni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

- miqdoriy usullar, ya'ni iqtisodiy-statistik modellar asosida baholash;
- sifat usullari, ya'ni reyting tizimlari, ballar asosidagi baholash hamda ekspert xulosalariga tayanuvchi yondashuvlar.

Umuman olganda, moliyaviy risklarni boshqarish bo'yicha tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalari XX asrning 90-yillaridan boshlab jadal rivojlana boshladi. Aynan shu davrda moliyaviy sektordagi yirik kompaniyalar risklarni boshqarish sohasida muhim natijalarga erishib, innovatsion boshqaruv yondashuvlarini amaliyotga keng joriy eta boshladilar.

Xususan, sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta hodisalari bilan bog'liq ehtimoliy holatlarni prognozlash va baholash, shuningdek, xususiy va davlat sektori o'rtasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni sug'urtalash orqali moliyaviy natijalarni barqarorlashtirish mexanizmlari takomillashtirildi. Bu jarayon risk-menejmentning tor ixtisoslashgan yo'nalishdan alohida va mustaqil funksional tizim sifatida shakllanishiga xizmat qildi.

O'z navbatida, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar hajmi va murakkabligining ortib borishi risklarni boshqarishda zamonaviy va kompleks yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishni talab etdi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ham ekologik, texnologik va ijtimoiy yo'nalishlardagi masalalarni hal etishda risklarni boshqarish mexanizmlaridan faol foydalanish amaliyoti kengaydi. Bu esa strategik qarorlar qabul qilish jarayonida risk-menejmentning ahamiyatini yanada oshirdi.

Natijada, risk-menejment kompaniya boshqaruv tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanib, korporativ boshqaruvning barcha bosqichlarida muhim o'rin egallay boshladi. Shu bilan birga, u ijro organlari va menejerlar faoliyatini baholashda asosiy samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) biri sifatida qo'llanila boshlandi.

1990-yillarning boshlaridan boshlab xalqaro amaliyotda risk-menejment sohasiga oid turli standartlar ishlab chiqilib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qo'llanila boshladi. Keyinchalik ayrim davlatlar o'z milliy standartlarini ishlab chiqdi. Moliya sektori kompaniyalari esa ushbu standartlarda belgilangan tamoyillar asosida istiqbolli moliyaviy-investitsion strategiyalarni ishlab chiqishda keng foydalanmoqda (1-jadval) [4].



1-jadval. Moliyaviy risklarni boshqarishning xalqaro standartlari (Баранов, 2015)²

Qisqartirilgan nomlanishi	Standartning nomlanishi	O'zbek tilidagi nomlanishi
ISO/IEC 31010:2009	Risk management - Risk assessment techniques	Risk-menejment – risklarni baholash usullari
ISO/IEC Guide 73	Risk Management – Vocabulary - Guidelines for use in standards	Risk-menejment – lug'at – standartlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar
ISO 31000:2009	Risk management - Principles and guidelines	Risk-menejment – tamoyillar - tavsiyalar
COSO II ERM - Integrated Framework	Enterprise Risk Management - Integrated Framework Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO), USA	Kompaniya risklarini boshqarishning integrallashgan modeli (2004). Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlari qo'mitasi, AQSh
IRM, AIRMIC va ALARM (FERMA RMS)	Risk management standard, 2002 The Institute of Risk Management (IRM), The Association of Insurance and Risk Managers (AIRMIC) and ALARM The National Forum for Risk Management in the Public Sector, UK. Adopted by Federation of European Risk Management Associations	Risklarni boshqarish standarti (RMS) 2002, Risk-menejment instituti, Sug'urtalash va risk-menejmenti assotsiatsiyasi, Davlat sektorida risklarni boshqarish milliy forumi. Yevropa risk menejerlari uyushmalari Federatsiyasi tomonidan qabul qilingan.
BS 31100:2008 Britaniya standarti	Code of practice for risk management	Risklarni boshqarish bo'yicha amaliy Kodeksi
AS/NZS 4360:2004 Avstraliya standarti	Risk management	Risklarni boshqarish
HB 436:2004 Avstraliya yo'riqnomasi	Risk management Guidelines – Companion to AS/NZS 4360:2004	Risklarni boshqarish bo'yicha yo'riqnomasi - AS/NZS 4360:2004 standartini qo'llash
CSA Q 850:1997 Kanada standarti	Risk Management Guidelines for Decision Makers	Qaror qabul qilish jarayonida risklarni boshqarish bo'yicha ko'rsatmalar
JIS Q 2001:2001 Yaponiya standarti	Guidelines for development and implementation of risk management system	Risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga doir yo'riqnomasi

Xalqaro standartlar bosqichma-bosqich takomillashtirilib borilishi bilan birga, tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda alohida me'yoriy talablar ham ishlab chiqilgan. Jumladan, sug'urta kompaniyalari uchun Solvency va Solvency II, tijorat banklari uchun esa Basel, Basel II va Basel III standartlarini misol keltirish mumkin.

1-jadvalda keltirilgan xalqaro standartlar risklarni boshqarishda quyidagi jihatlarni unifikatsiya qilishni nazarda tutadi:

- sohada qo'llaniladigan terminologiyani;
- risklarni boshqarish jarayonining tarkibiy tuzilishi va o'zaro muvofiqligini;
- kompaniyalarda risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish yondashuvlarini.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarda umumiy qoidalar mavjud bo'lishiga qaramay, ayrim jihatlarda bo'yicha farqlar (terminologiya, risklarga ta'sir mexanizmlari va boshqalar) uchrab turadi. Shu bilan birga, moliyaviy risklarni boshqarish bo'linmalari tashkil etilgan korxonalarda ko'pincha tashqi va ichki omillarning faoliyat natijalariga ta'siri tahlil qilinadi, biroq risklarning miqdoriy bahosi va tasnifi yetarli darajada yoritilmasligi mumkin. Bu esa manfaatdor tomonlar uchun kelajakdagi risk darajasini aniq baholashda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida moliyaviy risklarni boshqarish tizimi milliy qonunchilik, Markaziy bank me'yoriylari hamda amaliy reglamentlar asosida shakllanib, zamonaviy metodologiyalar bilan boyitilib bormoqda. Mazkur tizim korxonalar va banklarga turli risk turlariga nisbatan samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi hamda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi (2-jadval) (Chorshanbiyeva, 2025 y.) [5].

2-jadval. Moliyaviy risklarni boshqarishning amaliy jarayonlari³

Amaliy jarayon yo'nalishi	Jarayon mazmuni	O'zbekiston sharoitiga xos jihatlari	Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar	Amaliy natija
Risklarni aniqlash	Moliyaviy risklarni korxonada yoki bank faoliyatida aniqlash	Kredit, bozor, likvidlik, operatsion va valyuta risklari mavjud	O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonun, Markaziy	Risklar to'liq ro'yxatga olinadi, ularni boshqarish rejalashtiriladi

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



			bankning normativlari	
Risklarni baholash	Aniqlangan risklarning moliyaviy va ehtimoliy ta'sirini hisoblash	Bozor sharoitining o'zgaruvchanligi va likvidlik talablari	Markaziy bankning "Likvidlikni boshqarish bo'yicha Nizom"	Har bir riskning potentsial yo'qotish miqdori baholanadi
Monitoring va nazorat	Risklarni doimiy kuzatish va nazorat qilish	Banklar va korxonalarda ichki nazorat qo'mitalari tashkil etiladi	Bank ichki me'yoriy hujjatlari, "Bank risklarini boshqarish qo'mitasi to'g'risidagi Nizom"	Risk holati real vaqt rejimida kuzatiladi va hisobot beriladi
Diversifikatsiya	Aktivlar va portfollarni turli yo'nalishlarda taqsimlash	Kredit portfeli, investitsiyalar va operatsion faoliyat diversifikatsiya qilinadi	Ichki bank qo'llanmalari, moliyaviy nazorat qoidalari	Yo'qotish xavfi kamayadi, barqarorlik oshadi
Hedjing	Risklarni moliyaviy instrumentlar orqali kamaytirish	Valyuta kursi, foiz stavkalari va qimmatli qog'ozlar riskini kamaytirish	Moliyaviy instrumentlardan foydalanish bo'yicha ichki reglamentlar	Bozor shoklariga qarshi himoya ta'minlanadi

Moliyaviy risklarni boshqarish zamonaviy korxonalar va bank faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, uning samarali tashkil etilishi moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida moliyaviy risklarni boshqarish tizimi milliy qonunchilik, Markaziy bank me'yorlari hamda ichki reglamentlar asosida shakllangan bo'lib, u korxonalar va banklar faoliyatida risklarning har bir turini aniqlash, baholash, monitoring qilish va maqbul darajada boshqarishni nazarda tutadi.

Zamonaviy yondashuvlar, jumladan diversifikatsiya, hedjing, sug'urta, likvidlik va kapitalni samarali boshqarish, shuningdek, raqamli va innovatsion texnologiyalardan foydalanish risklarni boshqarishning samarali mexanizmlari sifatida keng qo'llanilmoqda. Ushbu yondashuvlar moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bilan birga, boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining aniqligi va ishonchligini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimi va korxonalar moliyaviy risklarni boshqarish jarayonini milliy huquqiy asoslar va zamonaviy metodologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali strategik rejalashtirish va barqaror rivojlanishga erishib bormoqda.

Shu bois, moliyaviy risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini keng joriy etish korxonalar va moliya institutlarining uzoq muddatli rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, mamlakatimiz aksiyadorlik jamiyatlarida risklarni boshqarishning xalqaro standartlarini bosqichma-bosqich joriy etishda unifikatsiyalash talablarini inobatga olgan holda quyidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari to'liq joriy etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqishda moliyaviy risklarni boshqarishning tashkiliy tuzilmasi mavjudligini aks ettiruvchi alohida indikatorlarni joriy etish;
- Moliyaviy risklarni baholash va ularni samarali boshqarishga doir ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, ushbu yo'nalishda fundamental grant dasturlarini rivojlantirish;
- Aksiyadorlik jamiyatlarida "uch himoya chizig'i" (Three Lines of Defense) modelini joriy etish orqali risklarni aniqlash, baholash va nazorat qilishning yagona mexanizmini shakllantirish hamda hedjing amaliyotini takomillashtirish. Shu bilan birga, kuzatuv kengashi, ijro organi va ichki audit subyektlari o'rtasida funksional vazifalarni mutanosib taqsimlash va javobgarlik chegaralarini aniq belgilash;



- Moliyaviy risklarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadida zamonaviy infratuzilmani shakllantirish va uni hududlar kesimida muvozanatli rivojlantirish;

- Moliyaviy risklarni boshqarish sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish, mavjud kadrlarning xalqaro kompaniyalarda amaliy tajriba orttirishini qo'llab-quvvatlash.

Bizningcha, risklarni boshqarishning xalqaro standartlari orasida milliy amaliyot uchun Yevropa risk menejerlari uyushmalari federatsiyasi (FERMA) tomonidan ishlab chiqilgan standartdan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 2002 yilda ishlab chiqilgan "Risklarni boshqarish standarti" (RMS) Yevropa Risk-menejment instituti, Sug'urta va risk-menejment assotsiatsiyasi hamda davlat sektorida risklarni boshqarish milliy forumi hamkorligida yaratilgan.

Mazkur standartning muhim jihati shundaki, unda qo'llanilgan terminologiya Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO/IEC Guide 73) yondashuvlariga mos keladi. Xususan, risk darajasi "hodisa ehtimoli va uning oqibatlar kombinatsiyasi" sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, FERMA standartiga muvofiq kompaniya risklari to'rtta asosiy guruhga ajratiladi:

- strategik risklar;
- operatsion risklar;
- moliyaviy risklar;
- istiqboldagi (kelgusidagi) risklar.

Mazkur tasnif risklarni tizimli ravishda boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish jarayonini izchil tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Lancaster, A., & Goff, S. (2023). Financial Risk Management Fundamentals. September 21. Mavjud: <https://www.auditboard.com/blog/financial-risk-management>
3. Burxanov, A.U. (2019). Korxonalar moliyaviy barqarorligi: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 160 b.
4. Abdullayeva, M.X. (2024). Moliyaviy risklarni baholashning xalqaro standartlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, may soni.
5. Chorshanbiyeva, M.O'. (2025). Moliyaviy risklarni boshqarishning zamonaviy usullari. Jahon ilmiy-metodik jurnali, 76-son, 5-to'plam, dekabr.
6. Fan, M., Chen, X., Liu, B., Zhou, F., Gong, B., & Tao, R. (2023). An analysis of financial risk assessment of globally listed football clubs. Heliyon, 9(12), e22886. <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e22886>
7. Wang, Q., Zhang, L., Ma, Q., & Wu, C. (2024). The impact of financial risk on boilerplate of key audit matters: Evidence from China. Research in International Business and Finance, 102390. <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2024.102390>
8. Xamdamov, O.N. (2021). Moliyaviy barqarorlik strategiyasini shakllantirishning xalqaro amaliyot tajribalari. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 5-son.
9. Баранов, А. (2015). Международные стандарты управления рисками: не только Basel. Рынок ценных бумаг, №5.
10. Боровская, И.Л., & Шайхутдинова, А.К. (2019). К вопросу об управлении финансовыми рисками. Вестник университета «Туран», №3, 86-91.
11. Солодов, А.К. (2017). Основы финансового риск-менеджмента. Учебник и учебное пособие. Москва: КноРус.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>